

TA'M VA GO'ZALLIKNING O'ZGACHA UYG'UNLIGI

Jovliyeva Marjona*Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot universiteti
akademik litseyi o'quvchisi*

Qandolatchilik -bu oziq-ovqat tayyorlashning eng nozik ,go'zal va yoqimli ijod turlaridan biridir. Qandolat mahsulotlari nafaqat ta'm , balki estetik go'zallikni ham ulashadi. U insonlarning qalb kechinmalarini bir-biriga osonlik bilan ifodalashga yordam beradi , shuning uchun qandolatchilikni san'at darajasiga ko'tarsak ham noto'g'ri bo'lmaydi. Demak , qandolatchilik san'ati asrlar davomida rivojlanib , turli madaniyatlar va an'analar bilan boyib kelmoqda.Ko'plab mahsulotlarning yig'indisidan hosil bo'lgan qandolat mahsulotlarining ham turlari bisyordir. Har bir qandolatchi o'z maxsus retseptlari va uslublari bilan ajralib turadi. Bu esa qandolatchilikni yanada rivojlanishi va xilma-xil bo'lishini anglatadi.

Har bir san'atning o'z tarixi bo'lganidek, qandolatchilik ham qadim tarixga borib taqaladi. Dastlabki, qandolat mahsulotlari masalan, asal, yong'oq va tabiiy shirin mahsulotlardan tayyorlangan shirinliklar. Qadimgi Misr va Gretsiya davlatlarida paydo bo'lgan. Keyinroq esa o'rta asrlarga kelib shakardan foydalanish ancha rivojlangan ishi bilan birgalikda qandolat mahsulotlarining xilma-xilligi ortib borgan. Bugungi kunga kelib, qandolatchilik san'ati butun dunyoda keng tarqalgan va har bir mamlakat o'zining mashhur shirinchiliklariga ega.

Bir nechta mahsulotlar yig'indisidan ko'plab shirinliklarning turlarini hosil qila olamiz. Pirog, napalyon , tort, rolit va paxlava kabi qandolat mahsulotlarini tayyorlashda deyarli bir xil ingredientdan foydalanamiz. Masalan, tuxum, un, shakar, yog' va yong'oq har bitta qandolat mahsulotlari tarkibiga qo'shiladigan retsept hisoblanadi.

Qandolatchilikda, albatta, san'atkorlik, muhim rol o'ynaydi. Har bir qandolatchi shirinlik tayyorlash davomida yangi retseptlarni kashf etadi. Bu esa ranglarni, ta'mlarni uyg'unligini go'zallashtirish bilan birgalikda ijodkorlikni talab qiladi, bu esa ushbu san'atni yanada qiziqarli va xilma-xil bo'lishiga ko'maklashadi. Qandolatchilik san'ati orqali biz bir necha mazali taomlarni yaratamiz, balki hayotimizni go'zal xotiralar bilan to'ldiramiz, bu esa qandolatchilikni haqiqiy san'atga aylantiradi.

Qandolatchilik- qadim davrlardan meros bo'lib kelgan san'at turlaridan biridir. Bu nafaqat shirinliklar, balki hayotga go'zal qalb bilan boqish hayotimizni turli xil ajoyib ranglar bilan bezashni ifodalashdir. Hayotimiz shu shirinliklar bilan shirin bo'lsin.

